

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SHART MAYLINING QIYOSIY TAHLILI

*Ilmiy rahbar: Muqimjon Muxammadaminovich Axunov*

*(PhD) Filologiya falsafa fanlari doktori*

*E-mail: muqumjon.akhunov@bk.ru*

*Umarova Munavvar Nurmuhammadovna*

*Andijon davlat chet tillari instituti talabasi*

*Anatatsiya: Ushbu maqolada mualliflar hozirgi ingliz va o'zbek tillarida shart maylining qiyosiy tahlili usullardan foydalanish komponentlari haqida o'z mulohazalarini bayon qilishga harakat qilgan. Bunda mualliflarning diqqat markazida ingliz va o'zbek tillarida shart maylining qiyosiy tahlili asosiy tadqiqot materiali sifatida o'rganilgan. Maqolani tayyorlash jarayonida muallif ingliz va o'zbek tilshunoslarining qarashlariga tanqidiy yondoshgan va o'z mulohazalarini dadil bayon qilgan. Maqola ingliz va o'zbek tili leksikologiyasini o'rganuvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.*

**Kalit so'zlar:** shart mayli, leksikologiya, ingliz tili, kesim, ega, buyruq mayli, suffikslar, sub'yunktiv

Hozirgi ingliz tilida maylning **indikativ** (aniqlik), **imperativ** (buyruq), **sub'yunktiv** (shart-istak) turlari mavjud.(6, 153)

**Indikativ (aniqlik) mayli.** (The indicative Mood). Indikativ (yoki aniqlik) maylida ishlatiluvchi fe'l formalari voqelikni yoki reallikni aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, ish –haoakat yoki holatni ifodalovchi fe'l haqiqatni yuzaga chiqqanlik yoki chiqmaganligini ko'rsatadi.

Masalan: I saw him yesterday. I see a car. I am reading.[4, 191]

Indikativ mayli belgisiz bo‘lib, faqat boshqa mayl formalariga qarama-qarshi qo‘yilishi natijasidagina mustaqil mayl sifatida ajratiladi. Masalan: I **remember** him as it **were** yesterday, as he **came** plodding to the inn door, his sea-chest following behind him in a band-barrow. [4, 192]

Yuqoridagi misolda **remember** va **came** fe’llari voqea sodir bo‘lgan yoki yuz berganligini ifodalab indikativ maylda, were fe’li esa farzni ifodalab, voqeaning ancha ilgari sodir bo‘lganini bildirib sub’yunktiv maylda kelayotir. Indikativ mayldagi fe’l, fe’l uchun harakterli bo‘lgan zamon, aspekt, nisbat, perfekt, shaxs, son kategoriyalariga ega.

**Buyruq (imperativ) mayli.** (The imperative Mood). Buyruq mayli formasidagi fe’llar so‘zlovchining tinglovchiga biror harakatni bajarish yoki bajarilmalikni buyurganligi so‘raganligi yoki maslahat berganligini bildiradi. [5, 127]

Ingliz tilida buyruq maylidagi fe’l doim ikkinchi shaxs ko‘plikda ishlatiladi va ish harakatni bajaruvchi shaxs situatsiyadan ma’lum bo‘lganligi uchun u ko‘pincha gapda alohida olmosh bilan ifodalanmaydi. Masalan:

Come here?

Stand up!

Buyruq maylning bo‘lishsiz formasi **to do** ko‘makchi fe’li bilan **not** yuklamasi yordamida yasaladi:

Do not come! (Don’t come)!

Do not read! (Don’t read)! [5, 127]

Buyruq mayli quyidagi ma’nolarni anglatishi mumkin:

a) buyruq, undosh, majbur etishni:

“Look him out”, said Mrs. Hall. “**Don’t let** him come in again” (*H.I. Walls*).

“**Oh! Shut up!**” said the voice, with amazing vigor (*Ibid*) “**Shut** the doors” said the policeman. [12, 193]

b) so‘rash, iltimos, o‘tinish va maslahatni:

“**Take a drop** more, Johnny”, said Hall. “Just **a drop** more, Janny” said Hall “Keep steady, Kemp, for God’s sake! I want help badly. Stop!” (*Ibid*). “Give me some whisky. I’m near dead!” (*Ibid*) “Help! Help-hold! He’s down! Hold his feet!” [7, 153]

Buyruq mayli iltimosi bildirganda **please** (marhamat) so‘zi ham ishlatilishi mumkin:

“Please, don’t open the door (H.I.Walls). [7, 153]

v) ajablanish va hayratni:

“Look out!” said everybody, fencing at random and hitting at nothing. (H.I.Walls). [7, 154]

“Surrender!” said Mr. Ranting fiercely, and then stopped amazed. (*Ibid*).

Ayrim hollarda imperativ formadagi kesimning egasi ham ko‘rsatilishi mumkin:

You do what you are tired (H.I.Walls). “You go bark to the house (*Ibid*).

Imperativning ma’nosi Let+ olmosh (yoki ot) + infinitive birikmasi yordamida ham berilishi mumkin. Bu ko‘proq I va III shaxslarga taaluqli:

**Let’s have** a cup of tea, said Marvel. (H.I.Walls). “**Let me get up**”, said Kemp (*Ibid*). “**Let me show** you something”, he said (Th. Dreiser) “**Let me go**” she said (*Ibid*). [7, 154]

**Sub’yunktiv mayli.** (Subjunctive Mood) Sub’yunktiv mayl so‘zlovchining ish harakatga bo‘lgan xohishi, istak, faraz qilish, shart qo‘yish kabi munosabatlarini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda sub’yunktiv mayldagi fe’llar ish-harakatning umuman n o r y e a l ekanligini ko‘rsatadi.[3, 135]

Hozirgi ingliz tilida sub’yunktiv mayl problemi har xil grammatikalarda turlicha talqin etiladi. Mazkur darslikda professor J.Bo‘ronov sistemasiga asoslangan holda sub’yunktiv I, sub’yunktiv II, sub’yunktiv III va sub’yunktiv IV terminallarini ishlatishni lozim topdik.[7, 153]

Sub’yunktiv I (Subjunctive I) Sub’yunktiv I turkumiga kiruvchi fe’llar formalariga ko‘ra to‘g‘ridan-to‘g‘ri hech qanday shaxs qo‘shimchalarisiz yasaladi.

Perfekt kategoriyasi ish-harakatning ma'lum muddat yoki vaqtdan oldin sodir bo'lishini, tugallangani yoki tugallanishini ko'rsatadi.

Hozirgi ingliz tilida fe'ning perfekt formasi perifrastik perfekt (periphrastic perfect) deyiladi. Maxsus suffikslar olmasdan turli komponentlarning analitik formaga kirishi natijasida yasalgan perfekt perifrastik perfekt deb tushuniladi. Masalan:

I have finished my work (men ishimni tugatdim) gapida ikkita so'z (have finished) qo'shib, analitik forma tashkil qilishi natijasida yasalgan. Perfekt kategoriyasi bo'yicha fe'l formalari ikki xil bo'ladi:

- a) pyerfyekt bo'lmagan fe'l formalari (Non-perfect verb forms):
- b) perfekt (li) analitik fe'l formalari. (Analytical perfect forms of the verb).

Fe'ning perfekt bo'lmagan formalari turli kategoriyalarda perfekt formalarga qarama-qarshi qo'yiladi, ya'ni oppozitsiyaga kirishadi. Fe'ning perfekt formasi asosan: to have fe'lining II sifatdoshga qo'shish bilan yasaladi. Masalan: I have come, I had come; I shall have come. Perfekt forma **to be** fe'lini II sifatdoshga qo'shish yo'li bilan ham yasalishi mumkin, lekin bu usul hozirgi ingliz tilida kam uchraydi. Mayl kategoriyasi ingliz tilida ancha murakkab munozrali bo'lib, uning turlari haqida bir qator tilshunoslar turli fikrlar bildirishgan: Smirinskiy, Axmanova, M.Ganshina va Vasilevskayalar 6 ta mayl turini ajratganlar. (30, 127)

Ular:

1. Aniq (Indicative)
2. Buyruq (Imperative)
3. Shart I (Subjunctive I)
4. Shart II (Subjunctive II)
5. Sabab (Conditional)
6. Faraz (Suppositional)

Boshqa tilshunoslar: B.Ilish, Vinokurova va Jigadlolar esa 3 ta mayl turlarini ko'rsatib, berganlar. (34, 137)

1. Aniq (Indicative)

2. Buyruq (Imperative)
3. Shart (Subjunctive)

Mashhur tilshunos L.S.Barxudarov faqat 2 mayl turini aniq va buyruq mayllarini ko'rsatib, u shart maylini tan olmaydi. [4, 165]

1. Aniq (Indicative)
2. Buyruq (Imperative)

Professor G'.M. Hoshimov "Lectures on comparative typogy" kitobida ingliz tilida 3 ta maylni ko'rsatib o'tgan.(32)

1. Indicative mood
2. Imperative mood va
3. Subjunctive mood

Uni quyidagi jadvalda ko'rib chiqamiz.

№	Til	Mayl turlari				
		Aniq	Buyruq	Istak	Shart	Maqsad
1	Ingliz	+	+	+	-	-
2	O'zbek	+	+	+	+	+

1. Aniq mayli (Indicativemood) I live here.Men bu yerda yashayman
2. Buyruq mayli (Imperative mood) Come! Keling
3. Istak mayli (Subjunctive mood)If I were young, I would don't. Agar men yoshbo'lsam, buniqilardim

4. Shart mayli (Conditional mood) U kelsa, biz ketamiz.

5. Maqsad mayli (Final mood) Men u yerga bormoqchiman

Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu masala ancha muammoli, lekin hozirgi zamon tilshunoslari tomonidan ingliz tilida uchta mayl tan olingan.

1. Aniq mayli
2. Buyruq mayli
3. Shart mayli

Chunki mayl fe'l kategoriyasi bo'lib, grammatik jihatdan ham shakllangan bo'ladi. Yuqorida tilshunoslar tomonidan tavsiya etilgan mayl turlaridan bir qatori faqatgina semantik jihatdan shakllangan ularda hech qanday gramatik formani ko'rmaymiz. Umumiy e'tirof etilgan uch mayl turlari esa ham semantik, ham gramatik jihatdan shakllangan. Bundan tashqari tinglovchiga qaratilgan buyruqni takidlamog uchun o'zakka **-qin,-xin** (qalin o'zaklarga) **chin,-kin** (yumshoq o'zaklarga) affikslari qo'shilishini aytadi: turg'un, yatqin, kelgin, turmag'in, yatmag'in, ketmagin kabilar. Kesimi shart maylidagi fe'llar bilan ifodalanganda gap tarkibida ko'pincha agar bog'lovchisi kelishi bu bog'lovchi aslida forscha bo'lsa ham turklarda faol qo'llanilishi haqida fikr yuritiladi. Turkiy tilda inkorni ifodalashda boshqa vosita ishlatilishi aytiladi. Jumladan: **ma, siz, (oziqli, oziqsiz)** Sifatdoshning bo'lishsiz shakli **mas-mar** ham bo'lishsizlik ifodalovchi alohida vosita sifatida beriladi. Masalan: **kelmazman, kelmazlar**. Ba'zan **-z** jarangsizlanishi mumkinligini ta'kidlab o'tiladi: kelmasman, kelmaslar kabi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, asarda bo'lishsizlik, bo'lishlik ostida fe'llarning bo'lishi, bo'lishsizlik shakllari bilan otlardagi va umuman gapga xos bo'lgan predikativlikning bir uzviy sanaluvchi tasdiq inkor kategoriyalari birlashtirilgan holda beriladi. Shart mayli formasi **-sa** affiksi va shaxs son qo'shimchalarining qo'shilishidan hosil bo'ladi: birlik: borsam, borsang, borsa; ko'plik: borsak, borsangiz(borsanglar, borsalariningiz, borsangizlar), borsa(lar), yoki borishsa.

Fe'ning bu mayli ham hozirgi o'zbek tilida bir-biridan farqli bir necha ma'nolarni ifodalaydi:

Shart mayli formasidagi fe'l boshqa biror harakatning bajarilishi uchun shart bo'lgan harakatni bildiradi, boshqa biror harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligi shart mayli formasi bildirgan harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligiga bog'liq bo'ladi.

Masalan: sen ham ochilsang, shu xilda yayraysan, cho'lim! [20, 179]

Fe'ning bu formasi ko'rsatilgan ma'noda qo'llanganda bosh gapning kesimi ijro mayli, buyruq istak, maqsad, shartli mayl formalarida bo'la oladi. Shuningdek, bosh gapning kesimi fe'llardan ham bo'lmasligi mumkin. Ijro maylining asosan, hozirgi kelasi formasi bosh gapning kesimi vazifasida kela oladi: Agar ish yoqmayotgan bo'lsa, dardu xasratingni ayt-qo'y! (A. Qahhor) Mendan har qancha xafa bo'lsalaringiz, ... haqlarinigzi bor. (M. Ismoilij) [3, 180] Shart mayli formasida ko'rsatilgan ma'nosida -gan affiksi bilan yasalgan sifatdoshning o'rin-payt kelishigidagi formasi ham qo'llaniladi. Bunday hollarda bosh gapning kesimi shartli mayl formasida bo'ladi: Men ham doim qishloqda turganimda, mashinani o'rganib olardim (H. Nazir) [2, 112] O'tgan zamon va hozirgi zamon sifatdoshi bilan "bo'l" fe'li yordamida yasalgan shart mayli formasidagi fe'l bildirgan harakat ma'lum bir vaqtda tugagan yoki davom etayotgan bo'lishi mumkin.

Masalan: Kelgan bo'lsa menga xabar qil, kelayotgan bo'lsa menga xabar qil. Lekin, kelgan bo'lsa, kelayotgan bo'lsa tipidagi formalari ham harakatning nutq paytiga bevosita munosabatini ifodalay olmaydi. [2, 113]

Shart maylining hech qanday zamon ko'rsatkichiga ega bo'lmagan "borsam, kelsang, aytsa, so'rasak" tipidagi formasi zamon ma'nosiga ega emas va uni art maylining biror zamon formasi deb qarash ham mumkin emas. Harakat-xodisa o'tgan zamonga oid bo'lgan hollarda ham "-gan bo'lsa" yordamida yasaluvchi forma emas, -sa affiksi bilan yasaluvchi formasining o'zi qo'llanaverishi mumkin: u yog'iga o'tmasangiz, gap ochib, nima qilardingiz. (S. Anorboyev) Biz bilan o'tovda tunagan, biz nima yesak shuni yegan... (A.Qahhor) [2, 113]

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Bo'ronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. T.: O'qituvchi, 1973.
2. Bo'ronov J.B. Ingliz tili grammatikasi T.:O'qituvchi, 1973.
3. G'apponov M. Ingliz tili grammatikasi. T.: Turon – Iqbol, 2006.
4. KaushanskayaV. Practical Grammar of the English language.“Prosvesheniye”, 1971.
5. Kachalova K.N., IzrailovichYe.Ye. Prakticheskayagrammatikaangliyskogoyazyka. Bishkek: Turkistan, 2007
6. Nurmonov A.N. O'zbektilinazariy grammatikasi.T., «Fan»,1998
7. Nurmonov A.N. Hozirgizamono'zbekadabiytilidantablisalar.Andijon, 1985.
8. Nurmonov A.N., Iskandarova Sh. Tilshunosliknazariyasi. T., «Fan», 2008.